



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



SO`NGI AMIR SAYYID OLIMXON.

**Muhammadiyev Bilol Ismoil o'gli**

*Namangan davlat unversiteti.*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix*

*yo`nalishi talabasi*

*E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com*

*Tel: +998957707796*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Buxoro amirligini so`ngi hukumdori amir Sayyid Olimxonni yoshlik yillari, Rossiyadagi o`qish yillari, taxtga chiqishi, islohotlari, uning davridagi qo`shin holati, boshqaruv sohasidagi o`zgarishlari yoritiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Amir Abdulahad, Sayyid Olimxon, Nikolay II, Qarshi, Karmana, Ko`lob.*

**Abstract:** *This article covers the youth of the last ruler of the Bukhara Emirate, Emir Sayyid Olimkhani, his years of study in Russia, his accession to the throne, his reforms, the state of the army during his time, and changes in the field of governance.*

**Keywords:** *Amir Abdulahad, Sayyid Olimkhan, Nicholas II, Karshi, Karmana, Kulob.*

Amir Muzaffar hukumronligi davrida Rossiya imperyasi Buxoro amirligini hududni katta qismini bosib oldi. Qolgan qismini esa yarim mustamlakaga aylantirib siyosiy agent yordamida Buxoro amirlarini cheklanmagan huquqlarini qisqartirib tashladi. Buxoroning so`ngi amiri Sayyid Olimxon, Buxoro taxtiga chiqandan so`ng bir qancha islohotlarni o`tkazdi. Lekin bu islohtlar u qadar natija bermadi. Rossiya imperyasini qulashi natijasida boshlangan g`alayonlar ham Buxoroga o`z ta'sirini ko`rsatdi.

Amir Sayyid Olimxon Mang`it urug`i amirlarini so`ngisi. 1880 – yilda tug`ulgan. Sayyid Olimxon yoshlik yillarida Buxoroda diyonat ilmi va yoshlikda o`rganilishi kerak bo`lgan bilimlarni oldi. Sayyid Olimxon mamlakatni boshqarish masalalarini o`rganish maqsadida o`n uch yoshida ya'ni 1893 – yil Petrburga “ Nikalayev “ harbiy maktabida o`qishga otasi Abdulahadxon tomonidan yuborildi. Ta'lim mudati 7 yil bo`lsada, ammo amir Sayyid Olimxonni otasi amir Abdulahad istagi bilan o`qish mudati 3 yilga qisqartirildi. Sayyid Olimxon bu uch yilda, yoz oylari yani ta'til paytlari, Buxoroga kelib ketardi. O`qishni tugatgan Sayyid Olimxon 1896 – yilda Buxoroga qaytib keldi.

Ikki yil davomida Sayyid Olimxon otasi Abdulahadni yonida yurib undan turli o`giltarni organdi. Shundan keyin Nasaf ( Qarshi ) bekligini boshqarish ishini topshiri. Amir Sayyid Olimxon Nasafni 12 yil davomida boshqardi. Qarshida bir – nechta ishlarni amalga oshirgan. Jumladan Qashqadaryo ustida ko`prik, madrasa va boshqa imoratlar qurdirdi.

Amir Sayyid Olimxon 12 yildan keyin, mang`it valiahdlari hokim bo`ladigan hudud Karmanaga keldi. Ikki yil davomida Karmanani boshqargan Sayyid Olimxon otasi Abdulahadxoni vafot etgandan keyin, 1911 – yilda taxtga chiqdi. Amir Sayyid Olimxon xalq uchun bir nechta masjid va madrasalar qurdirdi. Jumladan Buxoro arki yaqinida, Baloyi





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



havz deyilgan joyda bir masjid bino qildi. Buxoro minorasini past tomonida bozorni ichki tomonida Dor – ul – ulum – Bilim o`yi bo`lgan madrasa qurdu. [ 3. – B 4 – 5 ].

Olimxon amirligi davrida mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy turmush yanada og`irlashadi. Xalq ommasining yashash, turmush tarzi yomonlashadi, zulmkorlik ekspluatatsiya kuchayadi. Xalq gardaniga tushadigan soliqlar miqdori oshdi. 1913-yildagi ma'lumotlarga qaraganda amirning yillik daromadi oltin hisobida 30 millionga teng bo`gan. Ana shu boylikning kattagina qismi shaxsan, amirning aysh -u ishrati va be'mani noaxloqiy tadbirlariga sarflangan. Amir Olimxon o`z davlati hududida xalqning umumiy manfaatlariga javob bera oladigan siyosat yurgizmadi. Ilg'or fikrli jadidlar harakatining faollari bilan umumiy til topib amirlikda tinchlik, osoyishtalik, hamfikrlik va birlikni shakllantira olmadi, aksincha, ularni quvg`in qiladi, qattiq jazoladi va bu bilan xalq ommasi ko'pchiligining nafrat va nadomatiga uchradi.[2. – B 90].

Rossiya birinchi jahon urushiga kirgandan so`ng o`z mustamlakalari qatori Buxoro amirligidan ham yordam oldi. Jumladan amir Sayyid Olimxon Nikolay II ga do`stlik yordamlari 10 ta to`p va besh yusta beshotar miltiq yubordi. Bundan tashqari aholidan 1500 ta ot to`planib Rossiyaga berildi.[6. – B 42].

Amir Sayyid Olimxon Rossiyaga ko`rsatgan bu yordamlari evaziga imperator Nikolay II uni general – leytenant harbiy unvoni bilan taqdirlagan va o`zining general – ad'yutanti qilib tayinlagan (1915 – yil dekabrda). [1. – B 146].

Bu davir Buxoro amirligini quroli kuchlari soni 11000 kishi, bo`lib uning tarkibida 2 ta otlig gvardiya, otlig artilleriya, piyoda askarlar va 500 nafar artilleriya bo`lgan. Sayyid Olimxon qo`shini mustahkamlash, ularni zamonaiy qurol – yarog` bilan ta'minlash, yangi jang taktikalarini tadbiq etish niyatida imperator Nikolay II va Turkuston general – gubernatoriga bir necha bor murojat qilgan. Ammo mustabid hukumat buni aslo xohlamas, aksincha, qo`shinni qisqartirish maqsadida turli yo`llar bilan qo`shining holatini, uning ta'minoti uchun sarflanadigan mablag`ni anqlashga harakat qilganlar.

Buxoro amirining harbiy qo`shinni kuchaytirish istagini va imkoniyatlarini mumkin qadar jilovlab turish maqsadida amirga bergan harbiy unvonlar bilan go`yoki harbiy darajasini ko`targandek bo`lgan. Amir Tersk kazak qo`shinlari hisobida turgan. Ayni paytda u Rossiya armiyasi kavaleryasi generali hisoblangan. Bu unvonlar Buxoro qo`shinlariga hech qanday o`zgartirish kiritmagan. Aslida bunday hol Buxoro amirining Rossiya imperatoriga itoati va tobeligini yaqqol ko`rinishi bo`lib, amirni imperator xizmatidagi bir amaldorligini ta'kidlash maqsadida qilingan ish edi. Amirni iltimosi bilan qo`shinga harbiy ta'lim berish maqsadida yuborilgan rus ofetserlari faqat sarbozlarga rus ustavini o`rgatish bilan kifoyalanganlar xolos. Sarbozlar safda yurish, miltiq ishlatish qoidalarini o`rganib turganlar, otish mashiqlari yilida bir marotaba bo`sh yoki puch patronlar bilan mashq qildirilgan.

Rasman qo`shin ixtiyoriylik asosida to`ldirilishi lozim bo`lsa – da, amalda armiyaga aksaryat hollarda biror bir gunoh qilib qo`ygan jinoyatchilar majburan xizmatga jo`natilgan. Qo`shinda xizmat qilish umurbot, ya'ni cheklanmagan muddatli bo`lgan qo`shin ta'minoti





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



yomonligi tufayli quyi darajadagilar bo`sh vaqtlarida mayda hunarmanchilik va savdo bilan shug`ulanganlar. Qo`shindagilar yoshi 15 yoshdan 70 yoshgacha bo`lib, ular orasida qariyalar ko`p bo`lgan. Qo`shin ham amirlik hokimiyati kabi faqat nomiga mavjud bo`lib, mirshablik va soqchilik xizmatlari uchungina saqlangan xolos.[ 4. – B 171-172].

Amir Sayyid Olimxon bir qator ijobiy ishlar amalga oshirdi. Jumladan Mir Arab madrasasi, Chor minor, Masjidi attor, Ulug`bek madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Bahovuddin xonoqosi, Minorai Kalon va ba`zi katta – kichik masjidlarni tamrlash uchun mablag`lar ajrati.

Amir Olimxon 1911 – yildayoq boshqaruv tizmida bir nechta o`zgarishlar kiritgan edi. Bazi lavozim egalarini lavozimidan bo`shatdi. Viloyatlarda yangi beklarni tayinladi. Jumladan Qorategin hokimi Avliyoqulbekni Hisor bekligi devonbegisi etib tayinladi. Sariosyo hokimi Ishoqbekni Ko`lob viloyati hokimi, Mirza Rabi`ni Sherobod viloyati hokimi, Abdulhafizbiyni Boysun viloyati hokimietib tayinladi. Qarshi hokimi Xo`ja sudurni mansabidan chetlatirib, o`rniga Dehnav viloyati hokimi Usmonbekbiyni tayinlab, unga dodxoh mansbini berdi. Imaratpanoh Mirzo Nizomiddin Xo`ja parvonachini devonbegi lavozimiga, Ahrorqulbekbiy qalmoqni biy lavozimiga, Ko`lob hokimi imoratpanoh Mulla Ne`matullobekbiy dodxohni Qorategin hokimi, Muhammad Yunisbiy dodxohni Chorjo`y vodiysi lavozimiga tayinladi.[ 5. – B 71 – 72 ]

Xulosa qilib aytganda Amir Sayyid Olimxon hukumronlik qilgan o`n yili nisbatan Buxoroda tinch va farovon o`tdi. Faqat hukumronligini so`ngi uch yili urushlar, qizil armiyaga qarshi kurashlar bilan o`tdi. Amir Olimxon mamlakatda katta o`zgarishlar qila olmasdi. Chunki uning tepasida rus imperatori turgan. Rus imperatorlari ham har qanday o`zgarishlarga qarshi bo`lganlar. Bundan tashqari Buxoroni har qanday holatda ham qaramligini kuchaytirish uchun, uni qashoqlik botqog`iga tiqavergan. Juda ko`p boyliklarni tashib ketgan. Bundan tashqari Buxoro amiri ham mehnatkash aholini peshona terisi bilan topgan pulariga Rossiya imperyasining turli budularida saroy va koshonolar qurushga sarflab yuborgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. Erqo`ziyev. Buxoro xonligi tarixi (o`quv qollanma). – Namangan, 2018. – 200 b.
2. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov, O`. Ubaydullayev Vatan tarixi 2 -Toshkent: Sharq- nashiryot matbaa aksiyadorlik kompanyasi bosh tahriryati, 2010.368b.
3. A.C. Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Тошкент: - “ФАН” наширёти. 1991. 21 b
4. Д.Х. Зияева. Узбекистонда харбий иш тарихидан. Тошкент: - “SHARQ” наширёти 2012. 281 б.
5. С. М. Олимий. Бухоро - Туркустон бешиги. Бухоро 2004 130 б.
6. М. А. Балжувоний. Тарихи Нофеий. Тошкент: - “ Академия” наширёти. 2001. 126.

